

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*



Nurmatova I.T. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini tashkil etish uslubi	491
Jabborova O.M., Kamolova F.K. Boshlang'ich ta'limda individual metodikadan foydalanish mazmuni	496
Sayliyeva M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlar turkumimi o'qitish jarayonida kreativlik ko'nikmasini shakllantirish	504
Eshmanova N.N., Matupayeva Sh.Z. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etishning o'ziga xos imkoniyatlari	508
Mamatova A.M. O'zbekistonda tarbiya masalasining yangi idroki	511
Tilavova S.B. STEAM yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish	517
Usmanova Q.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari va tizimi	522
Mambetaliyev Q.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatishning pedagogik asosi	525
Xo'jamiyarov S.Ch. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati	529
Турумбетова З.Ю. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvorining shakllanishida nutqiy faoliyatning o'rni	535
Xamidjonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati	539
Bo'riyeva T.A. Bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida tarbiya turlarini rivojlantirish metodikasi	544
Tirkashov M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida axborot-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish metodlari	549
Berdiyev B. R. Matematika darslarida kombinatorika elementlari, mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodlari	553
Keldiyarova V.B. Konstruksiyaviy usullar orqali bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish	557
Keldiyorova M.F. Yosh mutaxassislarining kasbiy adaptatsiyasi jarayoniga tayyorlash	562
Yakubova G.L. Rasmiy va norasmiy ta'limning integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatini shakllantirish metodikasi	567
Ashirova S.B. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta'minoti	571
Tilavova N.T. Montessori metodikasida bolalarga ekologik tarbiya berish	576
Nazirov U.Q. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	581
Eshchanova G. O., Jumaniyozova N. F. Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga zamonaviy yondashuv	585
Rasulova Z. O'yinlar vositasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish – didaktik zaruriyat sifatida	591
Ravshanqulova D.R. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni turizm vositasi orqali ma'naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish	595
Eshchanova G. O., Boltayeva M.I. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv	601
Shabbazova D.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati	605
Xoliyeva S.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikni rivojlantirish	610
Shermatova U.Sh. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	613
Shermatova U.Sh. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirish metodikasi	618
Ne'matova D.B. Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlashni rivojlantirish	623



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING GUMANITAR FANLAR TURKUMIMI O'QITISH JARAYONIDA KREATIVLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Sayliyeva M. M.

CHDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, kreativlik, ko'nikma, bilim, yondashuv, shakllantirish, tajriba.

Ключевые слова: начальный класс, ученик, креативность, умение, знания, подход, формирование, опыт.

Key words: elementary grade, student, creativity, skill, knowledge, approach, formation, experience.

“O'zbekiston-2030”strategiyasining ta'limga oid vazifalari ijrosini ta'minlash jarayonida o'zlashtirish ko'nikmalarini tarkib toptirish va ta'lim oluvchilarining malakaviy tayyorgarligini shakllantirish muhim o'rin tutadi [1]. Shu jihatdan 4K xalqaro modeli bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish ham bu borada muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada gumanitar fanlar turkumini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish tizimi masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Gumanitar fanlar turkumining xususiyatlari. Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlari turkumlashtirib o'qitilayotganligi muhim amaliy samaralarini bermoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlar turkumlarini quyidagilar tashkil qiladi:”Husnixat”,”Ona-tili va o'qish savodxonligi”,”Texnologiya”,”Ta s'viriy san'at”,”Musiqqa ma'daniyati,” “Jismoniy madaniyat”.ushbu gumanitar fanlarga quyidagi ta'limiy xususiyatlar xos ekanligini eslatib o'tish joiz:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozish,chizish va o'qish ko'nikmasini tarkib toptirish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutq,mantnini ifodali o'qish va ravon so'zlash ko'nikmasini shakllantirish;

3) boshlag'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash, ijodkorlikka intilish va layoqatini namoyon qilish tayanchlarini yuzga keltirish.

E'tibor berilsa, ushbu xususiyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik ko'nikmasini shakllantirishning muhim omillaridir. Shu sababli boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi tayanch ta'lim jarayoni hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasi, ya'ni ularda ijodkorlik tuyg'usining rivojlanishi, ijodga nisbatan xususiyatning paydo bo'lishi va nimanidir yatarishga bo'lgan ishtiyoqi tabiiy ravishda mavjud bo'ladi [2]. Shu jihatdan gumanitar fanlarning mana shu ko'nikmaning asoslari bilan tarkib toptiriladigan imkoniyatlaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangicha ijodkorlik tuyg'ularini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir.

Mavzularni ijodiy metodikalar asosida o'qitish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda Gumanitar fanlari mavzularini ijodiy metodikalar asosida o'qitish muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish boshlag'ich sinf o'quvchilarida kreativlik ko'nikmasini shakllantirishning keng imkoniyatlarini beradi.

1) chiroyli yozish, ifodali o'qish va matn mazmunini tushunishga o'rgatish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tuyg'ularni rivojlantirish;

2) she'r o'qish, qo'shiq tinglash va raqsga tushishga o'rgatish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik hissiyotlarini maqsadli rivojlantirish;

3) rasm chizish, notanish matn asosida bayon yozish va tabiat fasllari to'g'risida insholar yozishga o'rgatish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirish.

Mazkur ijodiy metodika asosida Gumanitar fanlar mashg'ulotlarini tashkil qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik ko'nikmasining tadrijiy rivojlanib borish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv fanlarining mavzularini chuqurlashtirilgan, o'yinli, rolikli va o'quvchilarni mustaqil ishlashga da'vat qiladigan vositalar asosida o'qitishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan gumanitar fanlar o'quvchilarning kreativlik ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirishning muhim omillaridir. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari rasm chizish jarayonida ijodiy fikrlash va o'z fikrini tasvirlash ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Kuy tinglash yoki qo'shiq kuylash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida his-tuyg'ularining tartibga tushishi, ularning



rivojlanishi va tuyg'ularning barqarorlashuvi holati yuz beradi, bu hol ijodkorlik ko'nikmasining muhim tayanchlaridan biridir. Yoki matnli o'qish tahlil qilish yoki yangi matn tuzish jayarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'ziga xos ijod ko'nikmasini o'zlashtiradi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik ko'nikmasini shakllantirishning muhim mexanizmlari hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlar turkumini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy layoqatini rivojlantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ijodiy layoqat tabiiy ravishda mavjud bo'lib, u muayyan motivatsiya asosida rivojlanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlarni o'qitish ijod g'oyasi asosida amalga oshirilishi muhimdir. Gumanitar fanlar turkumi shaxsning ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan mazkur fanlar turkumini ijodiy metodikalar asosida o'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini, ya'ni ijodiy goya, ijodiy intilish, ijodiy fikrlash va ijodiy tafakkur omiliga ega bo'lish imkonini beradi.

Gumanitar fanlar turkumining amaliy mashg'ulotlaridan foydalanish.

Boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlar turkumini o'qitishda bir necha shakllardagi amaliy mashg'ulotlardan foydalanish alohida belgilangan [3]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda mazkur fanlar turkumining amaliy mashg'ulotlaridan quyidagi tartibda foydalanish kutilgan samarani beradi:

1) amaliy mashg'ulotlar jarayonida bayon, insho, trenning va yozma-ijodiy ish musobaqalarini o'tkazish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish;

2) ijodiy ishlar va ijodiy ishlanmalar yaratish vositasida to'garaklar mashg'ulotlari jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish;

3) gumanitar fanlar bo'yicha fan olimpiadalarida ishtirok etishni tanlash vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ ko'nikmasini tarkib toptirish.

Diqqat qilinsa, Gumanitar fanlarning bu amaliy mashg'ulotlari shakllari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda muhim metodikaga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinflarda Gumanitar fanlar turkumini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda muhim va amaliy



mexanizimga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yonashuvimizga ko'ra, bunday mexanizimlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) har hir boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy qiziqishi va ijodiy layoqatiga asosan muayyan gumanitar fan o'qituvchisiga birlashtirib qo'yish;

b) o'quvchilar birlashtirilgan gumanitar fanlar o'qituvchilarining shu o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlari, ijodiy ishlar va amaliy mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish;

v) boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy layoqatining rivojlanish jarayonini sinf rahbarlari va maktab psixologi ishtirokida monitoringini olib borish ishlarini amalga oshirish.

Bu mexanizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida kreativlik ko'nikmasini maqsadli shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlar turkumlarining o'qitish jarayonida kreativlik ko'nikmasini shakllantirishning imkoniyatlari kengdir. Shu sababli bunday imkoniyatlardan maqsadli foydalanish va buning uchun tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish masadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. //www.ziyo net.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2023-2024 o'quv yili bazaviy Rejasi. // "ma'rifat" gazetasi 2023 yil 1 sentabr soni.
3. Sayliyeva M.M "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K xalqaro modeli bo'yicha kristizm ko'nikmasini shakllantirish", Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar", respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 20-fevral, 236-239 bet.

РЕЗИЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlar turkumini o'qitish jarayonida kreativlik ko'nikmasini shakllantirish masalasi to'g'risida fikr yuritilgan.

РЕЗИЮМЕ

В статье рассматривается вопрос формирования у младших школьников навыков креативности в процессе обучения гуманитарной категории.

SUMMARY

The article deals with the issue of formation of creativity skills in younger schoolchildren in the process of teaching the humanitarian category.